

## ISAJON SULTON HIKOYALARIDA PEYZAJNING O'RNI

*Davronova Shohsanam G'aybulloyevna*  
*filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent (BuxDU)*

**Annonatsiya.** Ushbu maqolada yozuvchi Isajon Sulton hikoyalarida peyzajning o'rni va vazifalari xususiyada so'z borgan.

**Kalit so'zlar.** Nasr, hikoya, Isajon Sulton hikoyalari, peyzaj, tabiat tasviri, badiiy g'o'ya, badiiy tasvir, poetik mahorat.

Badiiy asarda tabiat tasviri yozuvchining poetik mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ijodkor badiiy tasvir yo'sini, ifoda etmoqchi bo'lgan g'oyaviy qarashlariga mos ravishda tabiat go'zalliklari, o'zgarishlarini o'ziga xos tarzda ifodalashga harakat qiladi. "Uning asarda bajaradigan vazifalari ham xilmaldir, lekin ularning hammasi asar g'oyasi bilan, yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrlar bilan, estetik maqsadlar bilan uzviy bog'langandir"<sup>1</sup>. Bu borada nasriy asar namunalari alohida diqqatni tortadi.

Peyzaj badiiy asarda turli-tuman poetik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Yozuvchi asarda hikoya qilayotgan voqea-hodisalar va bo'lib o'tayotgan jarayonlarni kitobxon ko'z o'ngida tiniq gavdalantirish uchun bir vaqtning o'zida kechayotgan tabiat o'zgarishlarini ham tasvirlab boradi. Chindan ham "Asarda peyzaj bajaruvchi birlamchi funktsiya voqealar kechayotgan joy va vaqt haqida tasavvur berishdir"<sup>2</sup>. Shuningdek, peyzaj faqat kitobxonning ayni holat haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga xizmat qilibgina qolmaydi. Balki "Peyzaj qahramonlar harakatlariga sharoit yaratish, paytni belgilash, muayyan sharoitdagi holatini kayfiyatini ta'kidlash, voqealar rivojiga ta'sir etish kabi xususiyatlari bilan asarning g'oyaviy yo'nalishida juda muhim o'rin tutadi"<sup>3</sup>. Demakki, peyzaj qahramonlar holati, kayfiyatiga muvofiq ravishda asarning badiiy ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilishi kutiladi. Ayrim hollarda esa tabiat tasviri voqea-hodisalarning keyingi yo'nalishini belgilashda ham muayyan o'rin tutishi mumkin. "Biroq peyzajning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega. Jumladan, peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Bunda joy tasviri (undagi "rang"lar) personaj ruhiyati bilan uyg'unlik kasb etishi ham, unga kontrastli fon bo'lib xizmat qilishi ham mumkin; qahramon ruhiyatidan o'tkazib berilgan peyzaj esa uning ayni damdagi holatini tasvirlash vositasi (mas., "O'tkan kunlar"dagi haydalgan Otabek ko'zi bilan ko'rilgan tol) bo'la oladi. Shuningdek, ayrim hollarda peyzaj syujet voqealarini asoslaydi yoki ularning u yoki bu yo'nalishda rivojlanishiga (Masalan,

<sup>1</sup> Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 49.

<sup>2</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 221.

<sup>3</sup> Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент: Фан, 1973. – Б. 49.

A.Oripov. “Hangoma”) turtki beradi”<sup>4</sup>.

Istiqlol davri o‘zbek nasrining taniqli vakillaridan biri Isajon Sulton hikoyalarida tabiat tasviri alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi tabiatni sinchkovlik bilan kuzatadi, uning o‘zgarishlarini tasavvur qiladi va o‘ziga xos tarzda, yorqin tasvirlaydi. Adib hikoyalarida tabiatning betakrorligi, o‘zgarishlari, tovlanishlari, shuningdek, maysalar, giyohlar, gullar, yaproqlar, shamol, to‘fon va hokazo jonli tabiatni uzvi bo‘lgan juda ko‘plab hodisalar tasviri berilganligini kuzatamiz. Yozuvchi asarlarini mutolaa qilish jarayonida tabiat bilan oshno tutinamiz, o‘zimizni jonli tabiatning og‘ushida bo‘lgandek his qila boshlaymiz. Bu albatta, yozuvchining badiiy mahoratidan dalolat beradi. Masalan, yozuvchi ijodida shamol tasviri berilgan bir qancha hikoyalarni uchratamiz. Masalan, “Shamolli kecha”, “Ozor”, “Tilsim lashkari”, “Bibi Salima” va hokazo.

“Shamolli kecha” hikoyasida yozuvchi shamolni o‘ziga xos mahorat bilan tasvirlaydi. Hikoyani mutolaa qilayotgan kitobxon shamolning harakatini jonli, aniq kuzatayotgandek bo‘ladi; shamol ta’siriga tushgan qishloq manzarasini tasavvurida gavdalantiradi; o‘zini asar qahramonlari bilan birgalikda o‘sha shamolli kechada umidvor, ildam odimlayotgandek his etadi; shamolning dahshatini ular bilan baravar sezib boradi. Masalan, shamol yuz bergan paytdagi qishloq manzarasi tasviriga diqqat qarataylik: “Shamol bu makonlarda to‘satdan qo‘zg‘aladi. Tog‘ oralarida yetilib, o‘ngirlar orasidan o‘kirib vahshat solib chiqib keladi. Qishloqlarning naridan-beri ohaklangan devorlaridagi changlarni uchirib, tomlarning qumlarini sochib, ko‘cha tuprog‘ini to‘zg‘itib-to‘zg‘itib esaveradi. Makkapoyalarni ag‘anatadi, kir o‘ralarda hushtak chaladi, suvlarni chayqatadi, tepalarda g‘uvillaydi, pastga tushganida chelaklarni-yu cho‘psavatlarni ag‘anatib yumalatib yuboradi. Dala-dashtdagi yumron inlarini qum bilan ko‘madi, ovsarroq qushlar qurgan uyalarni tamomila buzib tashlaganida jajji polaponchalari chirqillaganicha yerga qulab tushib, vahshiy hayvonlarga yem bo‘lishadi”<sup>5</sup>.

Yozuvchi shamolni mubolag‘ali tarzda, jonli qilib tasvirlaydi. Natijada asar qahramonlari – o‘spirinlar singari uning qo‘rqinchi o‘quvchini ham chulg‘ab oladi. “Dang‘araning shamoli – bahaybat tog‘ oralaridan ko‘zga ko‘rinmas benihoya ulkan mahluq singari chiqib kelgan shu shamol o‘kirib-pishqirib rosa esdi.

Shu turishda u hozir Qirqlar, Minglar, Aravon, Jilva, Chomoch, Soylar”, Nayman, Begovot kabi yuzlab qishloqlar ustida to‘zon va qum sochib vahshat solib chunon o‘kirib-o‘kirib o‘tdi-ki!

Daraxt oralarini aylanib-aylanib esishida nola ohanglari ham borga o‘xshardi. Kuch va qudratini insonlarning omonat makonlari uzra namoyon qila-qila, goh bo‘zlay-bo‘zlay, goh nolon-nolon, goh esa isyon ila qichqira-qichqira, shiddati

<sup>4</sup> Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – Б. 221.

<sup>5</sup> Султон И. Шамолли кеча. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 215.

pasayganida esa ingrana-ingrana esaverdi.

Uning esishida boshqa ma'nolar ham borga o'xshardi"<sup>6</sup>.

Yozuvchi shamol tasvirida jonlantirish, o'xshatish, mubolag'a kabi badiiy tasvir vositalari imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda shamol esayotgan paytdagi manzarani ko'z o'ngimizda, tasavvurimizda tiniq namoyon etadi. Ko'rinib turibdiki, yozuvchi tasvirlarida shamol goh "ingrana-ingrana esaveradi", goh "qahqaha urib", goh "qum sochib vahshat solib, chunon o'qirib-o'kirib" o'tadi va umuman olganda, insonlardek ovozlar chiqaradi, xatti-harakatlar qiladi. Qolaversa, shamol ramziy mohiyat kasb etib onadan yetim qolgan bolalarning ruhiy iztiroblarini teran ifoda etuvchi vosita bo'lib ham xizmat qiladi. "Etim bola" deb ovoz chiqardi u tomorqalar ustida.

Ayqash-uyqash bo'lib singib ketgan jo'xorizorlar uzra esa "Hoy bola" deb dag'dag'a qildi!

Va qahqaha urib, sho'rlik akaning sochlarini uzib olguday bo'lib yulqilayverdi:

"Etim bola, toy bola,

Singling qayda, boy bola?..."<sup>7</sup>.

Shamol bolalarning his-tuyg'ulari kechinmalarini tasvirlash uchun vosita bo'lishi bilan bir qatorda ramziy ma'no tashib, yigitchaning o'sha paytdagi holatini teran ifoda etishga ham xizmat qiladi. Beshafqat va mehrsiz insonlar kabi shamol himoyaga muhtoj va yetim qolgan bolalarga dag'daga qiladi, ularni qo'rqitadi. Yo'lda singlisini yo'qotib qo'ygan yigitning ustidan go'yo shamol qahqaha otib kulayotgan edi. Betizgin izg'iyotgan shamol onasidan ayrilib, himoyaga, mehrga, sokin va xotirjam hayotga tashna bo'lgan, bunday hayotni sarkash izlayotgan, unga intilayotgan o'spirin bolalarning iztiroblari bo'lib ovoz bergandek tuyuladi.

Shamol tasviri orqali yozuvchining parallel tasvirlash mahorati ham ham yuzaga chiqadi. Ijodkor shamolni va qishloq manzarasini, shamolni va qahramonlarning ruhiy kechinmalarini yonma-yon tasvirlab borish orqali tasvirni teranlashtirishga, ta'sir kuchini oshirishga erishadi. Masalan, ushbu manzara tasviri orqali shamol ta'siriga tushgan qishloq tasvirini yorqin tasavvur qilish mumkin "...Nihoyat, qishloqning daraxtzorlari qorayib ko'rindi. Shamol yanada avjiga chiqqan, daraxtlarning qurigan shoxlari bu yerda ham qarsillab sinardi. Chapdagi zovurning do'nglari ustida bo'g'iq hushtak chala boshladi. Qishloqda ovozlar o'zgacha, dashtdagi kabi yovvoyi, hurkituvchi emas. Bu yerda ham nimalardir taraqlayapti, kimningdir eshigi shamolda ochilib-yopilib g'iyqillayapti, kuchuk vovillashi eshityapti"<sup>8</sup>.

Asarda hikoya qilinayotgan voqealar oqimi shamol tasviri bilan bog'liq holda

<sup>6</sup> Султон И. Шамолли кеча. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 222.

<sup>7</sup> Султон И. Шамолли кеча. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 222.

<sup>8</sup> Султон И. Шамолли кеча. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 220.

yo'naltiriladi. Ya'ni onasidan erta judo bo'lgan, o'gay onasining javrashlaridan ozorlangan, ishlarini tugatib osoyishta go'sha – buvisinikiga kech tushishiga qaramasdan yo'l olgan o'spirin yigitcha va singlisining yo'lga shamol to'siq bo'layotgan edi. Yozuvchi shamolni va u orqali aka va singil ruhiyatida kechayotgan jarayonlar – qo'rquv va uni yengishga urinish hamda umidvorlikni ham baravar tasvirlab boradi. Masalan, ushbu tasvirlarda akaning ruhiyatida kechayotgan holatlar va shamol tasviri yonma-yon keltiriladi. "Shamol battar shiddat urardi. Shunda daraxtlarning ko'lankalariga jon kirganday bo'ldi. Bir buta o'rnidan ilkis qo'zg'alib yo'l ustiga tashlandi. Yum-yumaloq kattakon bir narsa shundoq yonginasidan yumalab o'tib qamishlar orasiga kirib ketdi. Akaning esiga buvisining ertaklaridagi dahshatlar keldi, go'yo bu allaqaysi jodugarning kesilgan boshi-yu "Hap sanimi!" deya kimnidir yaniy-yaniy yumalab borib chuqurga tushib ketganday! Darxtlar shoxlarini cho'zib, yolg'izoyoq yo'lga yaqinlashib kela boshlashdi. Akaning yuzlari muzlab ketdi"<sup>9</sup>.

Aka-singil dasht-u to'qayzorlarni kechib birgalikda yelib-yugurib borayotgan edilar. Nihoyat qishloq ko'rinadi. Buvisining uyiga kirib borgan yigitcha xavf-xatarning ortda qolganligini chinakamiga his etib, xotirjam bo'lgan edi. Ammo buvisining "Hoy o'lgur, singling qani?" degan so'rog'idan dahshatga tushib ortga o'girilgan akaning ongida, tasavvurida o'sha dahshatlarni qayta boshdan kechirish holati holati jonlandi. Shu o'rinda yozuvchi voqealar oqimini sekinlatadi. Bunda unga yana tabiat tasviri yordamga keladi. Shiddatini to'xtatmagan shamol tasviri orqali kitobxon akaning holatini chinakamiga his etadi. Singilning ortidan qaytish, o'sha dahshatli kechinmalarni qayta boshdan kechirish, ustiga ustak endi endi yolg'iz, qolaversa, himoyasiz va ojiz qadrli insonini topish, qutqarish qayg'usi yigitchaning ong-u shuurida charx urar edi. Yozuvchi yigitchaning qarorini vahshiy shamol tasviri bilan parallel holatla bayon etadi. "Vahshiy shamol endi uning yuz-ko'zlariga, boshiga tuproq sochar, sochlaridan yulqilab qiynar edi. Uning shiddatida kampirning yog'och eshigi taraqlab yopildi, yopildi-yu yana qaytib lang ochilib ketdi.

Yigitcha yana ortiga qaytib yo'lga chiqdi"<sup>10</sup>. Shu o'rinda yozuvchi hikoyaning voqelarini yakunlaydi, kitobxonni mavhum kechinmalar og'ushida qoldiradi, natijani o'zi yaratishni o'quvchining o'ziga havola etadi.

Umuman olganda, Isajon Sulton hikoyalarida tabiat tasviridan unumli foydalanilgan. Yozuvchi o'zining g'oyaviy qarashlari, qahramonlarning ruhiy kechinmalariga mos tarzda tabiatni tasvirlashga kirishadi. Adib asarlarida betakror so'z bo'yoqlari orqali chizilgan borliqning jonli manzarasi o'quvchining ko'z o'ngida yorqin namoyon bo'ladi.

<sup>9</sup> Султон И. Шамолли кеча. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 219.

<sup>10</sup> Султон И. Шамолли кеча. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 223.

**Adabiyotlar:**

1. Akhmedova, Shoira, and Sofiya Mahmudova. "ABU ALI IBN SINA ON A CRITICAL BIOGRAPHICAL ESSAY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.7 (2022): 795-799.
2. Akhmedova, Shoira. "THE ROLE OF THE JADID PRESS IN THE FORMATION OF UZBEK LITERARY CRITICISM." *Конференции*. 2021.
3. Ахмедова, Ш. Н., & Назарова, Д. (2021). АДАБИЙ ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИХАТЛАРИ ХУСУСИДА. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(3).
4. Ахмедова, Шоира Нематовна. "ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ПОРТРЕТНАВИСЛИК ТАРАҚҚИЁТИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.6 (2020).
5. Ахмедова Ш. Н. ХУРШИД ДАВРОННИНГ АДАБИЙ–ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ: Ахмедова Шоира Нематовна, БухДУ ўзбек адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. доктори //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.2. Махсус сон. – С. 20-28.
6. Ахмедова, Шоира Нематова. "ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (2019): 12-14.
7. Ахмедова, Шоира Нематовна, Лосеева-Танем Бахтияри, and Насима Саидбурхановна Кадирова. "О Творческой Специфике Литературной Критики." *Miasto Przyszłości* 42 (2023): 326-329.
8. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
9. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.
10. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
11. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
12. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
13. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
14. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА

- “ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ”(«ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ»)  
//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.
15. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
  16. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
  17. G‘aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”) //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
  18. Gaybulloevna, D. S., & Bakhtiyorovna, N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
  19. NEMATOVNA, A. S. ., SAIDBURKHONOVNA, K. N. ., & BEKMURODOVNA, K. O. . (2021). METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS. *The Journal of Contemporary Issues in Business and Government*, 27(5), 778–784. Retrieved from <https://cibgp.com/au/index.php/1323-6903/article/view/2022>
  20. Nematovna, Akhmedova Shoira. "GENRE OF LITERARY PORTRAIT IN THE WORKS OF ALISHER NAVAL." *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА*: 127
  21. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.
  22. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE’RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
  23. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
  24. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
  25. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
  26. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
  27. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
  28. Norova N. Usmon Qo ‘chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
  29. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёровна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси

- ўқитувчиси,(PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
30. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. – 408 б.
  31. Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 392 б.
  32. Султонова М. Ёзувчи услубига доир. – Тошкент: Фан, 1973. – 116 б.
  33. Sharipova L. Literary yor-yor //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 218-222.
  34. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
  35. Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o ‘zbek she’riyatida folklorizm // Toshkent: Fan. – 2011. – Т. 153.
  36. Шарипова Л. ТИЛАК ЖЎРА ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ: Лайло Шарипова, БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. д //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 4. – С. 53-56.
  37. Sharipova L. MUALLIFI SINGARI DILBAR SHE’RLAR.. //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 64-69.
  38. Sharipova L. Замонавий шеъриятда ёмғир образи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
  39. Шарипова Л., Низомова К. ЎЗИГА ХОС ШЕЪРИЯТ //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 19-21.
  40. Sharipova L., Boboxo‘Jayeva L. A. XALQ OG ‘ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA’SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.
  41. Sharipova L. HAM TA’LIM, HAM TARBIYA BERUVCHI SHE’RLAR.. //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 12. – С. 169-173.
  42. Sharipova L. ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG ‘Z //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 387-391.
  43. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.